

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

MAMATAXUNOV NOZIM AZIZOVICH

**SAMARQAND KALOM MAKTABINING SHAKLLANISHIDA
IYODIYLAR OILASINING O‘RNI
(IX-X ASRLAR)**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Historical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по историческим наукам**

Mamataxunov Nozim Azizovich

Samarqand kalom maktabining shakllanishida Iyodiyalar oilasining o‘rni
(IX-X asrlar) 3

Mamataxunov Nozim Azizovich

The role of the Iyadi family in the formation of the Samarkand school of kalam
(9th-10th centuries)..... 23

Маматахунов Нозим Азизович

Роль семьи Иядидов в формировании Самаркандской школы калама (IX-X вв.)
..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....48

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

MAMATAXUNOV NOZIM AZIZOVICH

**SAMARQAND KALOM MAKTABINING SHAKLLANISHIDA
IYODIYLAR OILASINING O‘RNI
(IX-X ASRLAR)**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/Tar748 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ii.au.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Islomov Zohidjon Mahmudovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hasanov Ahadjon Ahmadjonovich
tarix fanlar doktori, professor

Primov Soatmurod Uralovich
islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Yetakchi tashkilot:

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil ____ noyabr soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 244-00-56), Faks: (99871) 244-00-65, e-mail: info@ii.au.uz. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (165-raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 244-00-56), Faks: (99871) 244-00-65, e-mail: info@ii.au.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil ____ oktabrda tarqatildi.
(2024-yil 08-oktabrdagi 02-raqamli reyestr bayonnomasi.)

D.R. Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

M.F. Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, tarix fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ro‘y berayotgan diniy globallashuv jarayonida islom dinining sog‘lom e‘tiqod asoslari va uning shakllanishidagi tarixiy jihatlarni ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda islom e‘tiqodini saqlagan Moturidiy ta‘limoti va uning vakillari faoliyati alohida o‘rin egallaydi. Shu bilan bir qatorda mazkur ta‘limotning shakllanishi va tarqalishida ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan “Daru-l-iyodiya” (دار العياضية) – Iyodiy oilasining tarixiy, diniy-ijtimoiy xususiyatlarini ochib berish hamda Samarqand kalom maktabi vakillaridan Abu Nasr Iyodiy, Abu Bakr Iyodiy va Abu Ahmad Iyodiyning “Masailu-l-asharu-l-iyodiya” (مسائل العشر العياضية) nomli aqidaviy qarashlari mazmuni, ularning Ahli sunna val jamoa sog‘lom aqidasi muhofaza qilishdagi tarixiy ahamiyatini ko‘rsatib berish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jahondagi bir qator ilmiy-tadqiqot muassasalarida islom e‘tiqodi asoslari, moturidiy va ash‘ariy ta‘limoti qarashlarini o‘rganishga doir ko‘plab tadqiqotlarning davom etayotgani mavzuning zamonaviy ahamiyatini namoyon etadi. Ayniqsa, moturidiy ta‘limoti tarixi, manbalari, ulamolari, xususan, Abu Mansur Moturidiy faoliyati va ilmiy merosiga doir ilmiy izlanishlar bu yo‘nalishda salmoqli hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlarda Movarounnahrda shakllangan “Daru-l-juzjoniya” (دار الجزانية) va “Daru-l-iyodiya” (دار العياضية) oilasi faoliyati ham, asosan, Imom Moturidiyning shaxsiyati shakllanishi va ilmiy faoliyati doirasida o‘rganilib, Abu Nasr Iyodiy olimning ustozlari qatorida zikr etilgan. Shu bois mazkur tadqiqot ishida Samarqand kalom maktabining shakllanish omillari, undagi maktablar faoliyati, xususan, “Daru-l-iyodiya” oilasi vakillarining Samarqand kalom maktabi rivojida o‘rnini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda diniy-ma‘rifiy sohaga qaratilayotgan e‘tibor natijasida islom ta‘limoti va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan ulamolarning ilmiy-ma‘naviy merosini kompleks tadqiq etish hamda ularning zamonaviy ahamiyatini ochib berish imkoniyatlari kengaydi. O‘zbekistonda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etilishi bu yo‘nalishdagi ishlarni jadallashtirib, moturidiy ta‘limoti tarixi va uning mazmunini ochib berish borasida aniq chora-tadbirlar belgilandi. Natijada, Imom Moturidiyning “Ta‘vilotu-Qur‘on”, “Kitobu-t-tavhid”, Hakim Samarqandiyning “Savodu-l-a‘zam”, Abu-l-Muin Nasafiyning “Tabsiratu-l-adilla”, Nuriddin Sobuniyning “Bidoya” asarlari o‘zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima qilindi. Ushbu tadqiqot ishida Iyodiy oilasining tarixiy va ilmiy faoliyatini ochib berish orqali Samarqand kalom maktabi, xususan, Imom Moturidiy va uning izdoshlari faoliyatiga nazariy asos bo‘lib xizmat qilganini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4802-son “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil

etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 16-iyuldagi PQ-5186-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida hamda sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Movarounnahrlik mutakallimlar hayoti va faoliyati, xususan, iyodiyalar sulolasi tarixi hamda ularning ilmiy-ma'naviy merosiga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Abdulqodir Qurashiy, Abdul karim Sam'oni, Ibn Qutlubug'o, Abdulhay Laknaviy, Hoji Xalifa va Xayruddin Zirikliyning tabaqotlarida¹ "Daru-l-iyodiya" maktabi vakillari hayoti va ilmiy-ma'naviy merosi haqida muxtasar ma'lumot berilgan.

Yevropa sharqshunoslaridan K.Brokkelman, V.Madelung, M.Gyots, U.Rudolf, Y.Shaxt, D.Jimare, L.Garde, S.Bilxan, M.Allar asarlarida² ham iyodiy sulola vakillarining hayot yo'li haqida qisman ma'lumot uchraydi. Ushbu olimlarning, asosan, kalom ilmi tarixi, mutakallim va faqihlarning ilmiy merosiga oid tadqiqot olib borishgan. Yevropalik olimlar orasida iyodiyalar tarixiga oid ma'lumotlarni V.Madelung ijodida ko'proq uchratish mumkin.

Turkiyalik tadqiqotchilardan S.Uludag', K.Ishik, H.Atay, M.Yazichio'g'lu, M.O'zerverli, A.Ahmet, A.Shaban, S.Kutlularning moturidiy kalom maktabi tarixiga oid izlanishlari alohida o'rin tutadi³. Lekin ularning tadqiqotlarida Iyodiyalar

¹ عبد القادر قرشي. الجواهر المضوية في طبقات الحنفية. حيدر اباد: 1991؛ عبد الكريم سمعاني. الأنصاب. بيروت: دار الفكر. 1998؛ ابن قطيبي. تاج التراجم في طبقات الحنفية. ليبسيك: فلوكل. 1862؛ عبد الحي اللكنوي. فوايد البهية في الترجمة الحنفية. القاهرة. 1906؛ خواجه خليفة. كشف الزنون الأنساب الكتب والفنون. استنبول. 1941-1943؛ خير الدين زركلي. الأعلام. بيروت: دار العلم للمليين. 1998.

² Brokkelman K. Geschichte der arabischen Litteratur: T. I-II. – Weimar-Berlin: 1898.; Madelung W. The Spread of Maturidism and the Turks // Actas IV Congresso de Estudos Árabes Islâmicos. Coimbra-Lisboa. 1 à 8 de Setembro de 1968. – Leiden: Brill, 1971. – B. 109-168.; Madelung W. Abu l-Mu'in al-Nasafi and Ash'ari Theology // Studies in Honour of Clifford Edmund Bosworth. Vol. II: The Sultan's Turret: Studies in Persian and Turkish Culture / Edited by Carole Hillenbrand. – Leiden, Boston, Köln: Brill, 2000. – B. 318-330.; Götz M. Maturidi und sein Kitāb Ta'wīlāt al-Qur'ān // Der Islam. – 1965. – № 41. – 79 b.; Rudolf U. Al-Maturidi und die sunnitische Theologie in Samarkand. – Leiden, New York, Köln: Brill, 1997. – 396 b.; Schacht J. An Early Murci'ite Treatise: The Kitāb al-'Ālim wa-l-muta'Ilīm // Oriens. – 1964. – № 17. – B. 96-117.; Gimaret D. Théories de l'acte humain en théologie musulmane. – Paris: 1980. – 263 b.; Gardet L. Introduction à la théologie musulmane. – Paris: 1970. – 132 b.; Bilhan S. Les juristes hanafites de l'Asie centrale à l'poque des Qarahnides. – Paris: 1973. – 68 b.; Allard M. Le problème des attributs divins dans la doctrine d'al-As'ari et de ses premiers grands disciples. – Beyrut: 1965. – 632 b.

³ Uludağ S. Kelam İlmi ve İslām Akāidi (Şerhu'l-Akaid Tercümesi). Giriş. 34 vd. – İstanbul: 1980; İşik K. Maturidi'nin kelâm sisteminde İlmi, Allah ve Peygamberlik anlayışı. – Ankara: 1980. – 136 b; Atay H. Ebu'l-Mu'in Nesefi ve Tebsiretü'l — edille. «Tabūiratu-l-adilla» nashrining kirish qismiga yozilgan maqola. – Ankara: Diyanet işleri başkanlığı yayinlari, 1993. – B. 5-77; Yazicioglu M. Maturidi kelam ekolu'nun iki buyuk simasi: Ebu Mansur Maturidi ve Ebu'l — Mu'in Nesefi // Ankara universitesi basimevi. – Ankara: 1985. – B. 281-298; Yazicioglu M. S. Maturidi kelam ekolu'nun iki buyuk simasi: Ebu Mansur Maturidi ve Ebu'l — Mu'in Nesefi // Ankara universitesi basimevi. – Ankara: 1985. – B. 281-298; Özerverli M. Ebu'l-Mu'in en-Nesefi'e ait Tebsiretü'l — edille'nin kaynaklari. (Yüksek lisans tezi). – İstanbul: 1988. – 74 b; Ahmet A. Büyük Türk Âlimi Maturidi ve Maturidilik / Monografiya. – İstanbul: İnönü Üniversitesi İlahiyat Fakültesi, 2008. – 216 b; Şaban Ali Düzgün. Maturidi'nin Düşünce Dünyası,

oilasi va “Daru-l-iyodiya” maktabi haqida kengroq ma’lumot berilgan bo’lsa-da, maqsad Abu Mansur Moturidiy va uning ilmiy merosi tahliliga qaratilgan.

O‘zbekistonda U.Uvatov, A.Mansurov, A.Mo‘minov, Sh.Ziyodov, S.Oqilov, A.Alloqulov, O‘.Palvanov, M.Ataev, S.Primov, O.Muhammadiev, J.Sodiqov kabi tadqiqotchilar⁴ Movarounnahrda hanafiylikning kirib kelishi, kalom ilmi tarixi va moturidiylik ta’limotining tarqalishi, mutakallimlar ilmiy faoliyati hamda ahli sunna va-l-jamoaning aqidaviy qarashlariga oid izlanishlar olib borishgan. Xususan, S.Oqilovning tadqiqotlarida iyodiylar va “Daru-l-iyodiya” maktabi haqida kengroq ma’lumot berilgan bo’lsa-da, olim, asosan Abu Mansur Moturidiy va uning ilmiy merosini o‘rganishni maqsad qilgan. Shu nuqtai-nazardan kalom ilmining taraqqiy etishida Iyodiylar oilasiga oid ma’lumotlarni to‘liq, kompleks tarzda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2018-2020 yillarga mo‘ljallangan PZ-20170929709 – “Ahli sunna e’tiqod tamoyillariga mos bo‘lgan aqid (ilohiyot) matnlarining o‘zaro qiyosiy tahlili va zamonaviy mafkuraviy ahamiyati” mavzuidagi amaliy loyiha dasturiga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi IX-X asrlarda Movarounnahrda Samarqand kalom maktabining shakllanishida Iyodiylar sulolasi vakillarining o‘rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Samarqand kalom maktabini tadqiq etishning nazariy asoslarini tahlil etish;

Hanafiylik aqidasi bilan integratsiyalashuvda Samarqand maktabining o‘rnini belgilash;

(Ed.: Şaban Ali Düzgün), Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, 2011; Şaban Ali Düzgün Mâtürîdî Kayıp Aydınlanmanın İzinde, (Ed.: Şaban Ali Düzgün), Otto Yayınları, Ankara 2020; Kutlu Sönmes. Türklerin İslamlaşma Süresinde Murçie ve tesirleri. – Ankara: 2000; Kutlu Sönmes. Mâtürîdîlîğın Tarihi Arka Planı. – Ankara: 2003.

⁴ Уватов У. Имом ал-Мотуридий ва унинг таълимоти. – Тошкент: Фан, 2000.; Уватов У. Абул Муин ан-Насафий ҳаёти ва мероси. – Тошкент: Маънавият, 2003; Шайх Абдулазиз Мансур. Ақид матнлари. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2006. – 56 б; Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Сунний ақидалар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 584 б, Самарқанднинг сара уламолари. – Тошкент: Ҳилол-Нашр, 2014. – 112 б, Ҳидоят имоми. – Тошкент: Ҳилол-Нашр, 2021 – 128 б.; Мўминов А. «Ката’иб а’лами-л-ахйār» ал-Кафави (ум. В 990/1582 г.) как источник по истории ислама в Мавераннахре (III/IX – VII/XIV вв.): Дис. ... канд. ист. наук. – Ленинград, 1991.; Муминов А. Роль и место ханафитских ‘уламā’ в жизни городов центрального Мавараннахра (II-VII/VIII-XIII вв.): Дис. ... док. ист. наук. – Тошкент: ТИУ, 2003; Зиёдов Ш. Абу Мансур ал-Мотуридий ёзма мероси ва унинг “Китоб ат-Таъвилот” асари / Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: Ўз.Р. ФАШИ, 2003. – 154 б.; Оқилов С. Мовароуннахрда мотуридия таълимотининг шаклланиш тарихи. – Тошкент: Мовароуннахр, 2012. – 192 б.; Оқилов С. Абу Мансур ал-Мотуридий илмий мероси ва мотуридия таълимоти. Монография. – Тошкент: Hilol nashr, 2020.; Оқилов С. Мовароуннахрда мотуридия таълимотининг шаклланиш тарихи. – Тошкент: Movarounnahr, 2012.; Alloqulov A. Abu Hafis Nasafiyning «Aqoid» asari va sharhlari tahlili. Monografiya. – Toshkent: «O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2022. – 140 b.; Sodiqov J. Abu Mansur Moturidiyning “Ta’vilot ahli-s-sunna” tafsiridagi dinlar va e’tiqodlar tahlili. / Islom. fan. bo‘y. fal. dok. (PhD).. diss. avtoref. – Toshkent: 2022. – 47 b.; Palvanov O‘. Sa’duddin Taftazoniyning temuriylar davri moturidiya ta’limoti rivojiga qo‘shgan hissasi / monografiya. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2020. – 179 b.; Ataev M.P. Majduddin al-Ustrushaniyning Movarounnahr fikx ilmi tarixida tutgan ўрни: Дис. ... тарих фан. номз. – Тошкент: ТИУ, 2011; Атаев М. Жиззах алломалари. – Т. Adib, 2014.; Primov S. Abu Shakur Solimiy Keshiy va uning ilmiy merosi. Monografiya. – Toshkent: Complex print, 2021. – 208 b.; Muhammadiev O. Alouddin al-Usmandiy as-Samarqandiy hayoti va ilmiy merosi. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2018. – 182 b.

IX-X asrda Samarqanddagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarda Iyodiy olimlarning o'rini ko'rsatib berish;

Daru-l-juzjoniya va Daru-l-iyodiya maktablarining shakllanishiga ta'sir etgan omillarni ilmiy asoslab berish;

Iyodiy olimlar ilmiy merosini tasniflash;

“Masailu-l-ashru-l-iyodiya” asarining Moturidiy mutakallimlar ilmiy merosiga ta'siri va ahamiyatini ochib berish;

asarda ko'tarilgan masalalarning hozirgi kundagi ijtimoiy ahamiyatini ochib berish va olingan ilmiy natijalar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Iyodiy oilasi vakillari hamda “Daru-l-iyodiya” aqidaviy maktabi olingan.

Tadqiqotning predmetini “Daru-l-iyodiya” vakillarining ilmiy merosi, undagi 10 ta aqidaviy masala va ularning moturidiy ta'limoti shakllanishidagi ahamiyatini ko'rsatib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik hamda analiz va qiyosiy tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

IX-X asrlarda “Daru-l-juzjoniya” va “Daru-l-iyodiya” oilasi vakillarining adashgan oqimlar tomonidan ko'tarilgan Alloh, uning ismi va sifatleri, kalomi, oxirat, Allohni ko'rish, qabr azobi, gunoh qilgan mo'minning hukmi va taqdir borasidagi bahsli masalalarni o'nta (مسائل العشر)ga jamlab, tizimlashtirgani va sodda tarzda keng ommaga etkazib bergani Movarounnahrda aqidaviy ixtiloflarni oldini olish hamda sog'lom e'tiqodni muhofaza qilishga xizmat qilgani aniqlangan;

“Daru-l-juzjoniya”ning eng yirik olimi bo'lgan Abu Nasr Iyodiyning qarashlari keyingi davr kalom ilmidagi bahsli mavzular sabab o'zgargani hamda o'g'illari – Abu Bakr Iyodiy va Abu Ahmad Iyodiy tomonidan rivojlantirilishi natijasida alohida “Daru-l-iyodiya” nomli maktabga asos solinishiga olib kelgani dalillangan;

Samarqand kalom maktabi vakillarining faoliyati asosan o'z davrida yuzaga kelgan aqidaviy ixtiloflarning oldini olishga qaratilgani “Daru-l-juzjoniya”larning imon, mutashobih oyatlar ta'vili, kalom haqida, “Daru-l-iyodiya” vakillari ko'proq Allohning ismi va sifatleri, Qur'on, shafolat, qabr azobi va taqdir borasidagi masalalarga urg'u bergani bilan dalillangan;

faqat aqlga tayanuvchi toifalarga raddiya berish maqsadida “Daru-l-juzjoniya” vakillari aqidaviy masalalarda aqliy-mantiqiy fikr va ta'vilga urg'u bergani, “Daru-l-iyodiya” vakillari esa salafi solihlar yo'lidan borib, faqat naqliy dalil (oyat va hadis)ga tayangani hamda ta'vildan mutlaqo chetda bo'lgani bois ikki oila o'rtasida bo'lib o'tgan bahs-munozaralar Samarqandda kalom ilmi rivojlanishiga nazariy asos bo'lib xizmat qilgani isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqot natijasida Abu Bakr Iyodiyning “Masailu-l-ashri-l-iyodiya” risolasining Turkiya Sulaymoniya kutubxonasida Hekimoglu Ali Pasa fondida 402-raqam va Berlin Davlat kutubxonasining Orient Quart fondida 1661-raqam ostida saqlanayotgan 2 ta qo'lyozma nusxasi aniqlangan;

Muhammad ibn Ibrohim Hasiriy o'zining “Havi fi-l fatovo” asarida Abu Bakr Iyodiyning “Masailu-l-ashri-l-iyodiya” va ahli sunna val jamoa aqidasi o'zida aks

ettirgan “Sifatu-s-sunna va-l-jama’a” nomli risolalar jamlangan holda saqlangan qo‘lyozma nusxasi aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritilgan;

Abu Ahmad Iyodiy otasi Abu Nasr Iyodiy bilan bir qatorda, Abu Mansur Moturidiydan ham ta’lim olgani hamda qisqa muddatda etuk faqih bo‘lib iyodiy oilasi ilmiy an‘analarini davom ettirgani ko‘rsatib berilgan;

Abu Bakr Iyodiyning “Bayon asl mazhab ahl sunna va-l-jamoa” asari va “Sifatu-s-sunna va-l-jama’a”da ko‘tarilgan jami o‘nta masala konformistik yo‘nalishda bo‘lib, hukumatga qarshi qurol ko‘tarib chiqmaslik, jamiyatda osoyishtalikni saqlash, firqalarga bo‘linmaslik kabi g‘oyalari jamiyat farovonligi va o‘zaro birdamlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Abu Bakr Iyodiyning “Masailu-l-ashri-l-iyodiya” risolasi Turkiya Sulaymoniya kutubxonasida “Hekimoglu Ali Pasa” fondida 402-raqam va Berlin Davlat kutubxonasining “Orient Quart” fondida 1661-raqam ostida saqlanayotgan 2 ta qo‘lyozma nusxasi hamda Abu Bakr Iyodiy asarlarining 1989-yilda nashr etilgan zamonaviy nashriga tayanilgani, zamonaviy qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanilgani hamda Sharq va G‘arb islomshunoslik maktablarida shakllangan bir qancha ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanilgani, tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ularning kalom ilmida bu mavzuni yoritilishi bo‘yicha o‘rganuvchilarga muhim ma’lumotlarni bera olishi, yot g‘oyalardan qaytmaganlar bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish va ularning da’volariga ilmiy raddiyalar berish bo‘yicha muhim ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ilmiy jihatdan asoslangan ma’lumotlar, taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamda O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi oliy diniy ta’lim muassasalarida o‘tiladigan “Kalom ilmi tarixi”, “Moturidiy ta’limoti asoslari” “Ahli sunna val jamoa aqidaviy ta’limotlari tarixi”, “Movarounnahrlik mutakallimlar faoliyati” kabi o‘quv kurslarini o‘qitishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ushbu dissertatsiya natijalaridan islomshunoslik, sharqshunoslik, manbashunoslik, matnshunoslik sohalariga oid ma’ruzalar, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va dasturlarini tayyorlashda hamda shu soha vakillari bilan innovatsion hamkorlik ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand kalom maktabining shakllanishida iyodiy oilasining o‘rnini tadqiq etish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

IX-X asrlarda “Daru-l-juzjoniya” va “Daru-l-iyodiya” oilasi vakillarining adashgan oqimlar tomonidan ko‘tarilgan Alloh, uning ismi va sifatleri, kalmi, oxirat, Allohni ko‘rish, qabr azobi, gunoh qilgan mo‘minning hukmi va taqdir borasidagi bahsli masalalarni o‘nta (مسائل العشر)ga jamlab, tizimlashtirgani va sodda tarzda keng ommaga etkazib bergani Movarounnahrdaq aqidaviy ixtiloflarning oldini olish hamda sog‘lom e’tiqodni muhofaza qilishga xizmat qilgani aniqlangani to‘g‘risidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida tayyorlangan “Islomshunoslik

qomusiy lug‘ati”ning I va II nomli kitoblar mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 17.02.2024 yildagi 02-02/02/1/452-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, kalom ilmiga oid atamalar va ularning mazmuni haqidagi ma‘lumotlar ilmiy jamoatchilikka etib borishiga xizmat qilgan;

“Daru-l-juzjoniya”ning eng yirik olimi bo‘lgan Abu Nasr Iyodiyning qarashlari keyingi davr kalom ilmidagi bahsli mavzular sabab o‘zgargani hamda o‘g‘illari Abu Bakr Iyodiy va Abu Ahmad Iyodiy tomonidan rivojlantirilishi natijasida alohida “Daru-l-iyodiya” nomli maktabga asos solishga olib kelgani dalillangani xususidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida chop etilgan “Samarqandlik allomalar”, “Movarounnahrda Moturidiya kalom ilmi maktabi” kitoblari mazmuniga singdirilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 06.01.2023 yildagi 02/14 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, moturidiylik ta‘limoti asoslari, tarixi va uning mazmun-mohiyatini yoshlarga etkazish hamda ularda sog‘lom e‘tiqodni shakllantirishda muhim kasb etgan;

Samarqand kalom maktabi vakillarining faoliyati asosan o‘z davrida yuzaga kelgan aqidaviy ixtiloflarni oldini olishga qaratilgani “Daru-l-juzjoniya”larning imon, mutashobih oyatlar ta‘vili, kalom haqida, “Daru-l-iyodiya” vakillari ko‘proq Allohning ismi va sifatleri, Qur‘on, shafolat, qabr azobi va taqdir borasidagi masalalarga urg‘u bergani bilan dalillangani xususidagi ilmiy xulosalar Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti talabalari uchun tayyorlangan “Kalom ilmi”, “Moturidiya ta‘limoti tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmalar mazmuniga singdirilgan (Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining 04.01.2023 yildagi 01 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, talabalarning Samarqand kalom maktabi, “Daru-l-juzjoniya” va “Daru-l-iyodiya” oilasi vakillari faoliyati to‘g‘risidagi bilimlarining boyishiga xizmat qilgan;

Faqat aqlga tayanuvchi toifalarga raddiya berish maqsadida “Daru-l-juzjoniya” vakillari aqidaviy masalalarda aqliy-mantiqiy fikr va ta‘vilga urg‘u bergani, “Daru-l-iyodiya” vakillari esa salafi solihlar yo‘lidan borib, faqat naqliy dalil (oyat va hadis)ga tayangani hamda ta‘vildan mutlaqo chetda bo‘lgani bois ikki oila o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bahs-munozaralar Samarqandda kalom ilmi rivojlanishiga nazariy asos bo‘lib xizmat qilgani isbotlangani to‘g‘risida olingan ilmiy xulosalardan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy-tarixiy konseptsiyasining “Jaholatga qarshi ma‘rifat” bandini ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining 09.01.2023 yildagi 08-17/12 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, aholining sog‘ islom aqidasi hamda sog‘lom e‘tiqod asoslariga doir keng bilimlarinig shakllanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Ilmiy tadqiqot ishining asosiy natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 24 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta maqola, shundan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, ettita bo‘lim, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 125 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va uning vazifalari, o‘rganish ob’ekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Samarqand kalom ilmi maktabini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kalom ilmini tadqiq etishning metodologik asoslari, Abu Hanifa aqidaviy qarashlarining Samarqandda kalom ilmining shakllanishidagi o‘rni va Hanafiya aqidasi bilan integratsiyalashuv jarayoni tahlil etilgan.

Ushbu bobning *“Samarqand kalom maktabini tadqiq etishning nazariy asoslari”* nomli birinchi bo‘limida mavzuga oid mahalliy va xorijiy tadqiqotlar mazmuni va ularning yo‘nalishlari tavsiflangan. Jumladan, arab tilidagi manbalarda, asosan, mutakallim olimlarning hayoti va ilmiy faoliyati aks etgan bo‘lsa, evropalik tadqiqotchilarining izlanishlari kalom ilmi tarixi va undagi shaxslarga qaratilgan. O‘zbekistonda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar Abu Mansur Moturidiy shaxsiyati, ustoz va shogirdlari, moturidiy ta‘limoti asoslarini hamda ularda keltirilgan adashgan oqimlarga raddiya uslublariga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, mazkur bo‘limda kalom ilmini yuzaga kelish va shakllanish jarayoniga alohida urg‘u berilgan.

Islom dinining dastlabki davrlaridanoq musulmonlar orasida bir qancha aqidaviy mavzularda ixtiloflar yuzaga kela boshlagan. Ushbu ixtiloflarning negizida keyinchalik kalom ilmining eng nozik masalalaridan biriga aylangan “qazo va qadar” masalasi hamda Allohning zotini sifatlovchi mutashobih oyatlarini qanday talqin etish masalasi yotar edi. Tabiiyki, islomning dastlabki davrlarida bunday ixtilof va munozaralarga Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) tomonlaridan barham berilib, har qanday tortishuv, kelishmovchiliklarning oldi olingan. Lekin Payg‘ambar (s.a.v.)ning vafotlaridan keyin bunday bahs-munozara va tortishuvlar, hatto qonli to‘qnashuvlargacha borib etdi. Natijada, islom tarixida musulmonlar orasida eng katta fitnaga sabab bo‘lgan Siffin va Jamal janglari sodir bo‘ldi. Ushbu fitnaning yuzaga kelishiga keyinchalik kalom ilmining asosiy mavzusiga aylangan «imomat» (xalifalik, rahbarlik) masalasi asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu qonli to‘qnashuvlar natijasida islom olamida ikki katta aqidaviy guruh: xorijiy va shialar paydo bo‘lgan.

Keyinchalik islom dinining rivojlanishi jarayonida arab tiliga turli falsafiy adabiyotlarning tarjima qilinishi natijasida ahli sunna val jamoa e'tiqodlariga zid deb e'tirof etilgan qadariya, jabariya, mo'taziliya, mushabbiha, murjiya va karromiya kabi oqimlar yuzaga keldi. Ushbu oqimlar orasida mo'taziliya ta'limoti o'zining ratsionalistik qarashlari bilan alohida ajralib turgan⁵. Lekin yuqoridagi aqidaviy firqa va ta'limotlar orasida ahli sunna val jamoa aqidasiiga muvofiq turgan moturidiya va ash'ariya ta'limotlarini ham alohida ta'kidlash joiz. Chunki ushbu ikki ta'limot o'zining faoliyati davomida adashgan aqidaviy oqimlarga qarshi g'oyaviy kurash olib borgan.

Moturidiya va ash'ariya ta'limotlariga nisbatan ham ulamolarning fikrlari turlicha bo'lgan. Shunga qaramay, aksariyat ulamolar moturidiya va ash'ariya ta'limotini ahli sunna val jamoa e'tiqodlariga muvofiq ta'limot sifatida e'tirof etganlar.

Kalom ilmining paydo bo'lish tarixini, shartli ravishda, uch qismga bo'lib, ochib berish mumkin:

Birinchisi, ilk aqidaviy ixtiloflar va kalomning dastlabki vakillari. Ilk islom davrida Qur'on ilmlari hali alohida fan sifatida shakllanmagan edi. O'sha davrda sahobalar ma'nosini tushunish qiyin bo'lgan (mutashobih) oyatlar borasida Muhammad (s.a.v.)ga ko'plab savollar berar edilar. Buning natijasida turli xil ixtiloflar kelib chiqar edi. Jaloliddin Suyutiy «Savn mantiq» («Sog'lom mantiq ilmi») asarida ta'kidlashicha, Ibn Abbos (r.a.): «Ixtiloflar avj ola boshlagach, Rasululloh (s.a.v.) qalblarga shak-shubha tushishiga sabab bo'layotgan mutashobih oyatlar haqida bahs yuritishni keskin taqiqlab qo'yanlar»ini aytadi. Yana u ilk ixtilof qilgan Abdulloh ibn Sabig' ekanini keltirib o'tadi.

Mazkur davr, ya'ni VIII asrda kalom ilmi paydo bo'ldi va bunga turli aqidaviy masalalarda o'zaro tortishuv va nizolar natijasida yuzaga kelgan turli oqimlarning (xorijiylar, qadariylar, jabariylar, murjiylar) o'zaro olib borgan bahs-munozaralari va boshqa din vakillaridan mazdaizm va xristianlarning ham yuqoridagi oqimlar bilan bo'lgan tortishuvlari sabab bo'ldi. Kalom ilmi bilan mashg'ul bo'lgan diniy ulamolar «mutakallim» deb atalgan⁶. Mutakallimlar aqidaviy masalalarni yechishda naqliy (Qur'on va hadis) dalillar bilan bir qatorda o'z tafakkurlari, ya'ni dunyoqarashlariga ham suyanib ish tutganlar. Naqliy dalillarni keltirganda ham Qur'onni sharhlar ekanlar, uning ta'viliga ham e'tibor qaratadilar. Mutakallimlarning Qur'onni bunday shaklda sharhlashlarini ba'zi ulamolar tafsirning «Tafsir bir-ra'y» turidan hisoblab, uni tafsir deb atasa bo'ladi, degan fikrga kelganlar. Ammo aksariyat ilk islom ulamolari Qur'onni bu shakldagi sharhini tafsir deb atash noto'g'ri, balki uni «ta'vil» deb atash kerak, degan fikrni bildirganlar.

Ikkinchisi, kalom ilmining tadrijiy rivojlanish bosqichlari. “Kalom” so‘zi (كلام) arab tilida lug‘aviy jihatdan “jumla” yoki “so‘z” ma‘nolarini anglatadi. Yunon faylasuflarining arab tiliga tarjima qilingan asarlarida esa “kalom” so‘zi yunoncha “logos” (“so‘z”, “sabab” va “dalil” ma‘nolarini bildiradi) so‘zining tarjimasini sifatida

⁵ Оқилов С. Абул Муин ан-Насафий илмий мероси ва мотуридия таълимоти. Монография. – Тошкент: Мухаррир, 2008. – Б. 35.

⁶ Ramazan Yildirim. Kelâm tarihi. – Istanbul: İşaret Yayınları. 2017. – Б.21.

ishlatilgan. Tarjimalarda “kalom” atamasi o‘ziga xos bilim sohasining nomi sifatida ham qo‘llanilgan. Ko‘plik shakldagi sifatdosh “mutakallimun” (birligi: mutakallim) so‘zi esa har qanday bilim sohasining peshvolari yoki vakillarini ifodalagan. Aqida ilmining “kalom” deb atalishi borasida Sa‘duddin Taftazoniy: “U ko‘p hollarda qat’iy dalillar ustiga naqliy dalillar bilan qurilgan, u qalbdagi eng ta’siri kuchli bo‘lgan ilm bo‘lib, “yaralash” va “jarohat” so‘zlari o‘zagidan olingan kalom bilan nomlangan”⁷ deb ta’rif bergan.

Istilohiy nuqtai nazardan “kalom” – spekulativ (quruq muhokamaga asoslangan) ilm bo‘lib, islom aqidasi masalalarini sharhlashda dindagi nufuzli manbalar (naql)ga emas, balki aqlga asoslanadi.

Uchinchisi, kalomga nisbatan ulamolarning bildirgan turli fikrlari. Kalom ilmi paydo bo‘lganda, dastlabki ulamolar unga keskin qarshilik bildirgan. Bunga ushbu olimlarning shar’iy masalalarni ochishda naqliy dalil (Qur’on va hadis) kifoyadir, degan aqidada turganlari va naql bilan bir qatorda aqliy tafakkurga ham o‘rin ajratgan kalom ilmini keskin qoralaganlari sabab bo‘lgan. Yana kalom ilmining qarshilikka uchrashiga quyidagi omillar ham sabab qilib ko‘rsatiladi:

– «O‘zi»ning Kitobi va Rasulining sunnati bilan Alloh musulmonlarni Allohni tanish va tavhidini isbotlash, ismlari va sifatlarini bilish uchun boshqa manbalarga murojaat qilishdan behojat qilgani;

– Islom dinida Rasululloh (s.a.v.) yoritib bermagan va komil bayon etilmagan birorta masala qolmagan. Ular ushbu fikrlariga quyidagi oyatni dalil qiladilar: *“Bugun diningizni kamoliga etkazdim, ne’matimni tamomila berdim va sizlar uchun Islomni din bo‘lishiga rozi bo‘ldim”* («Moida» surasi, 3-oyat).

– avvalgi ulamolar kalom ilmi masalalar, tushunchalar va bahslar bilan shug‘ullanish foyda bermaydigan ortiqcha gap sotish, deb hisoblagan. U bilan shug‘ullangan inson quvvatini va vaqtini zoe ketkazadi. Chunki Alloh o‘z bandalariga hozirgi va kelajak davrda kerak bo‘ladigan barcha vazifalarni bayon etgani aytiladi;

– kitob va sunnatda keltirilmagan kalom ilmidagi tushunchalarni qo‘llash fitnalari, qo‘rquv va gumonlarga sabab bo‘ladi, deb hisoblangan.

Shu bois mazhab imomlari: Abu Hanifa, Imom Shofe’iy, Ahmad ibn Hanbalning kalom ilmi bilan mashg‘ul bo‘lishga qarshi fikrlar aytgani mashhur.

Shunga qaramasdan, IX–X asrlarga kelib, mo‘tazila toifasining mutashobih oyatlar borasidagi qarashlariga raddiya berish, insonlarni sog‘lom e’tiqodlarini mustahkamlash hamda adashganlarni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish maqsadida Darul iyodiy va Daru-l-juzjoniya maktabi vakillari aqidaviy masalalarga naqliy dalillar bilan birga, aqliy-mantiqiy dalil bilan ham javob berdilar. Mutashobih oyatlarni Qur’on va islom ta’limotining umumiy asoslariga zid bo‘lmagan mazmunda ta’vil qildilar. Bu esa mintaqada aqidaviy fitnalarning oldini olgan va noto‘g‘ri qarashlarning tarqalishiga chek qo‘ygan.

“Hanafiylik aqidasi bilan integratsiyalashuvida Samarqand maktabining o‘rni” nomli ikkinchi bo‘limida Movarounnahrda hanafiy

⁷ Сагдиев Х. Ақидавий асарлар номланишининг тадрижий босқичлари // СамДУ илмий ахборотномаси. – 2015. – № 2. – Б. 40.

mazhabining qaror topishi, rivojlanishi va bu jarayonda Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit ta’limotining mintaqada o‘ziga xos kalom maktabi shakllanishidagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Movarounnahrda hanafiy mazhabi Abu Sulaymon Juzjoniy (vaf. 200/815 y.) va Abu Hafs Kabir Buxoriy (vaf. 216/831 y.)lar orqali tarqalgan bo‘lsa, hanafiy aqidaviy ta’limotining kirib kelishida esa Balx va Ray shaharlari muhim ahamiyat kasb etgani aytiladi. Tadqiqotchi S.Oqilov bu haqida to‘xtalib, ushbu ikki o‘lkadagi hanafiy olimlar haqida muhim ma’lumotlarni bergan. O‘sha davrda ilm markazi hisoblangan Bag‘dodga o‘zga yurtlardan, jumladan, Balxdan ilm istagida kelganlar Abu Hanifa bilan bir qatorda boshqa olimlardan ham ilm olib, o‘z yurtlariga qaytadi hamda olgan ilmlarini tarqatardilar. Shuningdek, ularning o‘lka shaharlaridagi qozilik faoliyati natijasida Samarqand, Buxoro va Nasafda kalom va fiqh maktablari yuzaga keladi. Bunda o‘lkadagi Iyodiylar sulolasi vakillari faoliyati bilan bog‘liq jihatlar muhim o‘rin tutib, IX-X asrlarda Samarqandda “aqida ilmi” degan tushuncha “kalom” degan iboraga aylana boshlaydi.

Dissertatsiyasining **“Iyodiylar sulolasi faoliyat olib borgan davrda Samarqanddagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy holat”** nomli ikkinchi bobida Iyodiylar yashagan davrda ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy muhit, “Daru-l-iyodiya” va “Daru-l-juzjoniya” aqidaviy maktabining shakllanishi, unda Abu Nasr Iyodiy hamda Abu Mansur Moturidiyning ta’siri ochib berilgan. Iyodiy oilasi vakillari ilmiy merosining tasnifi amalga oshirilgan.

Ushbu bobning *“IX-X asr Samarqanddagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarda Iyodiy olimlarning o‘rni”* nomli birinchi bo‘limida Movarounnahrning Somoniylar davri tarixiga doir Istaxriyning “Suvar aqolim val masolik val mamolik”, Ibn Havqal “Surat arz”, Maqdisiy “Ahsan taqosim” nomli asarlari hamda ingliz sharqshunosi Key Lastronj “Sharqiy xalifalik shaharlari”, venger sharqshunosi Arminiy Vamberi “Buxoro tarixi” hamda ingliz sharqshunosi Vulfrid Madelungning ilmiy maqolalari qiyosiy o‘rganilgan. Ularga ko‘ra, Somoniylar aslida Somon qishlog‘i oqsoqoli Somonxudotning avlodlari bo‘lib, IX asr birinchi yarmida Farg‘ona, Shosh, Samarqand, Hirot kabi yirik viloyatlarga hokimlik qilganlar. Movarounnahr o‘lkasi Damashqdan so‘ng Ma‘mun davriga qadar Bag‘doddagi xalifalikka bog‘liq bo‘lgan. Somoniylar IX asr boshlarida Ma‘mun xalifaligi davrida siyosiy ko‘tarilishni boshladilar. Ma‘mun xalifa bo‘lgach, Asad ibn Somonning farzandlarini o‘ziga yaqin kishilardan bilib, Movarounnahrda boshliq qilib tayinlagan. Shu bilan Movarounnahr somoniylar qo‘liga o‘tgan. Ma‘munning hokimi G‘asson ibn Abbod to‘rtta somoniy aka-ukalarini Xuroson va Movarounnahrda mahalliy hokimliklarga, xususan, Nuh ibn Asadni Samarqandga, Ahmad ibn As‘adni Farg‘ona shahriga, Shosh va Ustrushonaga Yahyo ibn Asad va Hirot shahriga Ilyos ibn Asadni amir etib tayinlaydi. Shu sababdan Somoniylar amirligining 875-yilga qadar xalifalikka qaramligi saqlanib qoladi. 875-yildan boshlab, ular mustaqil imperiya sifatida Somoniylar davlatini barpo qildilar. Shunga qaramay 874-yildan boshlab Buxoroni,

892-yildan boshlab butun Movarounnahrni boshqarishni boshlagan Ismoil Somoniy davriga kelibgina Somoniylar davlati tashkil topdi⁸.

IX asrning oxirlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda muhim o'zgarishlar yuz bergani va Somoniylarning bir necha yillar davomida tinch siyosat va sharoitlarni ta'minlab turgani Movarounnahrning asosiy ilmiy markazlaridan hisoblangan Samarqand shahrida ilmiy jarayonlarning yanada jonlanishiga zamin yaratdi. Tarixiy manbalarda Somoniylar davlatining poytaxti bo'lgan Samarqand o'sha davrning eng muhim ilm markazi hisoblangan Bag'dodni ham ortda qoldirgani haqida ma'lumotlar kelgan. Ayniqsa, Samarqandning Buyuk Ipak yo'lida joylashgani tijorat, san'at va ilm markazlaridan biriga aylanishiga sabab bo'lgan. Somoniylar davrida Samarqandda nafaqat islom dinining, balki boshqa dinlarning ham ta'lim markazlari faoliyat olib borgan.

II bobning "Daru-l-juzjoniya" va "Daru-l-iyodiya" maktablarining shakllanishiga ta'sir etgan omillar" deb nomlangan ikkinchi bo'limida Somoniylar davrida Samarqandda ahli sunna val jamoa mazhabiga mansub olimlar "Daru-l-juzjoniya" va "Daru-l-iyodiya" maktablarida faoliyat olib bergani va mazkur maktablar o'z davrida Movarounnahrda Hanafiy aqidaviy ta'limotining rivojlanishida katta o'rin tutgani ko'rsatib berilgan.

"Daru-l-juzjoniya" maktabi Samarqandda Abu Hanifa aqidaviy qarashlarining keng tarqalishida muhim ahamiyat kasb etgan markaz hisoblangan. X asrning o'rtalarigacha ahli ra'y yo'nalishida, undan so'ng ahli hadis yo'nalishida faoliyat ko'rsatgan ushbu markazda Abu Mansur Moturidiy etishib chiqqan va mingga yaqin talabalarga saboq bergan.

Ushbu maktabni taxminan IX asrda Abu Muqotil Samarqandiy (vaf. 208/823 y.) barpo etgan. Keyinroq Abu Sulaymon Juzjoniyy va Abu Bakr Ahmad ibn Is'hoq ibn Subayh Juzjoniyy tomonidan rivojlantirilgan. Abu Muqotil Samarqandiy Abu Hanifaning o'zidan tahsil olgan va Samarqandga qaytib, ustozining fikrlarini tarqatgan. Keyinchalik u mashhur "Olim val mutaallim" asarini Samarqandga keltirgan va undan saboq bergan.

Ko'plab manbalarda Samarqandga Hanafiy ta'limotining kirib kelishi bevosita Abu Muqotil Samarqandiy orqali sodir bo'lganiga ishora qilingan. Abu Hanifaning shogirdlari tashkil etgan ushbu maktab keyinchalik ko'p yillar davomida Hanafiy ta'limotida saboq berilgan muhim ta'lim markaziga aylangan. Ibn Zakariyo "Daru-l-juzjoniya"da ta'lim berish bilan shug'ullangan olimlar silsilasini quyidagicha tuzib chiqqan :

1. Abu Sulaymon Muso ibn Sulaymon Juzjoniyy (vaf. 200/816 y.).
2. Abu Bakr Ahmad ibn Is'hoq Juzjoniyy (vaf. 250/864 y.).
3. Imom Abu Abdulloh ibn Abu Bakr Juzjoniyy (vaf. 285/898 y.).
4. Abu Nasr Ahmad ibn Abbos Iyodiy (vaf. 275/889 y.).
5. Abu Mansur Moturidiy (vaf. 333/944 y.).

Ushbu silsilaga ahamiyat berilsa, "Juzjoniya" nisbasi bilan uch nafar olim tilga olingan. Manbalarda keltirilishicha, ushbu ta'lim markazining "Daru-l-juzjoniya" deb nomlanishiga ham aynan shu uch olim markazning ilk asosiy ustozlari hisoblangani

⁸ Азамат Зиё. Сомонийлар. <http://e-tarix.uz/vatan-tarixi/uzbek-davlati/364-samoniylar.html>.

sabab bo'lgan. Lekin ajablanarli holat shundaki, Ibn Zakariyo tuzgan ushbu silsiladan biz yuqorida tilga olgan Abu Muqotil Samarqandiyning nomi tushib qolgan. Fikrimizcha, ushbu markazning qaror topishida Abu Muqotil Samarqandiyning o'rni katta bo'lgan. Ibn Zakariyo o'z asarida "Daru-l-juzjoniya"ning tashkil topishida dastlab Abu Muqotilning ko'rsatgan xizmatlarini ta'kidlab o'tgan holda, nima sababdan uni ushbu markazda faoliyat olib borgan olimlar silsilasiga kiritmagani ma'lum emas.

Ushbu markazda faoliyat olib borgan olimlar faqat Abu Hanifaning aqidaviy qarashlarini qo'llab-quvvatlaganlar va lavozimlardan chetqoq holda faqat ilm bilan mashg'ul bo'lib asarlar yozganlar. Faqat yuqorida zikr etilgan Abu Nasr Iyodiy ilm bilan shug'ullanish bilan birga qozilik vazifasini ham bajargan.

Abu Mansur Moturidiy yuqoridagi jihatlar asosida "Daru-l-juzjoniya" maktabining rivojida katta ahamiyat kasb etgan. Natijada, "Daru-l-juzjoniya" maktabidan kalom ilmining mo'taziliya, qadariya, jabariya kabi yo'nalishlariga muxolif ravishda ortodoks kalom yo'nalishi tashkil topa boshlandi. "Daru-l-juzjoniya" maktabida kalom ilmiga oid quyidagi fikrlar asos sifatida qAbu-l qilindi:

Aqlning o'rni dinda vahiydan oldin turadi, shariatda esa vahiyga tobe' bo'ladi.

Imonning ta'rifi quyidagicha: "Imon qalb bilan tasdiq bo'lishi shart".

Ulul Amrga (rahbar) itoatda (bo'ysunish) bo'lishda adolat asos qilib olinadi.

Irjo masalasi ikki turga: maqtalgan irjo va la'natlangan irjoga bo'linadi.

Mutashobih oyat va hadislarni to'g'ri anglash uchun ta'vil qilish zarur hisoblanadi.

Kalom ilmini o'rganish va u bilan shug'ullanish zarur.

Fiqh (Usulu-l-fiqh) bilan kalom (Usul u-d-din) ilmlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq.

"Daru-l-juzjoniya" maktabiga ko'ra diniy olimlarni bir vaqtda faqih va mutakallim deb atash joiz hisoblangan.

Movarounnahrda hanafiya aqidasi tarqalishida o'ziga xos o'rin tutgan olim – Abu Nasr Iyodiy bo'lib, u iyodiylar oilasining eng katta vakili hisoblangan. Manbalarda Abu Nasr Iyodiy haqida turli ma'lumotlar kelgan. Ba'zi tadqiqotchilar uni o'sha davrdagi "Daru-l-juzjoniya" maktabi vakili sifatida hisoblaganlar. Turk tadqiqotchilari esa Abu Nasr Iyodiy "Daru-l-iyodiya" vakili ekanini ta'kidlaganlar.

Shunday qilib, Movarounnahrda hanafiy mazhabi bo'yicha ikki fiqhiy maktab yuzaga keladi. Buxoro maktabida tarbiyalangan olimlar asosiy e'tiborni har doim fiqhga qaratilganligi bilan ajralib tursa, Samarqand maktabida tarbiyalangan olimlar fiqh bilan bir qatorda aqid ilmiga ham chuqur kirganliklari bilan ajralib turar edi.

Shu sababli Iyodiylar oilasi vakillari hamda Abu Mansur Moturidiyning ham fiqh, ham aqid ilmlari bilan shug'ullanganlarini va ikki sohaga oid qarash va risolalar yozganlarini ko'rish mumkin.

Abu Bakr Iyodiy o'zining ayrim aqidaviy qarashlarini o'z ichiga olgan "Masailu-l-asharu-l-iyodiya" risolasini vafotiga yaqin yozib tugatgan va mahalliy aholining mo'taziliy aqidalaridan uzoq bo'lishlari uchun uni xalq orasida e'lon qildirgan. Abu Bakr Iyodiy ushbu kitobida quyidagi o'nta aqidaviy masalani yoritib bergan .

1. Bandalarning fe'llarini yaratuvchi, shubhasiz, Allohdir. Ularning fe'llari Allohning qazosi va mashiati (xohishi) orqali paydo bo'ladi.

2. Alloh azaliy xoliqdir (yaratuvchi). Uning ilmi va sifatleri azaliydir. Bu sifatlar na Allohning o‘zi va boshqasidir.

3. Idrok va ihota qilmasdan Allohni oxiratda ko‘rib bo‘lmaydi. Ammo Alloh (ruiyat) ko‘rishni istagan bandasiga istagan shaklda o‘z jamolini lutf qiladi.

4. Qur‘on Allohning kalomi bo‘lib, u maxluq (yaratilgan) ham emas va muhdas (keyin paydo bo‘lgan) ham emas.

5. Katta gunoh sodir etgan mo‘minlarning holati Allohning mashiatidadir (xohishidadir). Alloh istasa, o‘z lutfi bilan ularni kechiradi, xohlasa, adolati bilan ularni o‘z gunohlariga yarasha jazoga tortadi.

6. Bandalar uchun foydali (aslah) yoki foydasiz bo‘lishidan qat‘i nazar, Alloh istagan ishni istagan shaklda qilishga qodirdir. Alloh o‘z ishiga javobgar emas, bandalar esa javobgardir.

7. Muhammad (s.a.v.)ning katta gunoh qilgan mo‘minlarni o‘z shafolatlariga olishlari haqdir.

8. Qabr azobi haqdir.

9. Alloh, albatta, o‘z bandalarining duolarini qAbu-l qiladi va bandaning duosida hikmat va foyda bordir.

10. Har qanday qadar (taqdir), xoh u xayrli bo‘lsin, xoh yomon bo‘lsin, Allohdir (ya‘ni, insonlarning yaxshi yoki yomon bo‘lgan barcha fe‘llarini taqdir qilgan Allohdir. Moturidiy aqidasi ko‘ra, banda fe‘lining xoliqi (yaratuvchi) Allohdir, foili (bajaruvchisi) esa bandadir.

Bu bilan Abu Nasr Iyodiy Movarounnahrda hanafiy aqidasi shakllanishi va moturidiy ta‘limotining yuzaga kelishida katta xizmat qilgan. Manbalarda moturidiy kalom maktabi tarixi haqida so‘z ketganda, iyodiy sulolasi alohida hurmat bilan tilga olinadi.

Umuman olganda, mintaqada ushbu ikki maktabning rivojlanishiga markazlashgan davlat (tinchlik) mavjudligi, davlat rahbarlarining g‘amho‘rligi, ilmiy muhit, xorijiy tajriba hamda adashgan oqimlarning da‘volari muhim omil bo‘lgan, deb hisoblash mumkin.

Mazkur bobning *“Iyodiy olimlar ilmiy merosining tasnifi”* nomli uchinchi bo‘limida *“Iyodiy”* nisbasi berilgan olimlar faoliyati va ularning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatib berilgan.

Abu Nasr Iyodiy *“Daru-l-juzjoniya”* maktabi vakili bo‘lib, *“Daru-l-iyodiya”* maktabiga uning o‘g‘li Abu Ahmad Iyodiy asos soladi va shu bois tadqiqotchilar ushbu maktabni X asrda tashkil topgan deb taxmin qiladilar⁹. Abu Mansur Moturidiy yashagan davrda hanafiylar orasida paydo bo‘lgan iyodiya tarafdorlari mutashobih oyatlarni ta‘vil qilish hamda aqlning asosiy hujjat bo‘lishiga keskin qarshi chiqqanlar¹⁰. Shu orqali ular Abu Hanifadan boshlab saqlanib kelayotgan «Ahli ra‘y»dan ajralib chiqadilar va «ahli hadis»ni qo‘llab-quvvatlaydilar. «Ahli hadis» g‘oyalarini ma‘qullagan iyodiya tarafdorlarining eng mashhur vakili Abu Ahmad Iyodiy bo‘ladi.

⁹ Оқилов С. Абу Мансур ал-Мотуридий илмий мероси ва мотуридия таълимоти. Монография. – Тошкент: Hilol Nashr, 2020. – Б. 44.

¹⁰ Ahmet A. Büyük Türk Âlimi Mâturîdî ve Mâturîdîlik / Monografiya. – Istanbul: İnönü Üniversitesi İlahiyat Fakültesi, 2008. – S. 108.

Abu Ahmad Iyodiy ham “Daru-l-juzjoniya”da Imom Moturidiydan ta’lim olgan va qisqa muddatda mashhur bir faqih bo’lib etishgan¹¹. Shu bois u “Daru-l-juzjoniya”dagi ustozlari e’tiboriga tushgan. Keyinchalik boshqa bir joyda “Daru-l-iyodiya” nomli bir ilm markazini ochgan. Samarqandda “Daru-l-iyodiya” vakillari Somoniylar qulashigacha etakchi bo’lib kelganlar. Bu jamoaga Somoniylar amirlari bilan yaxshi munosabatda bo’lgan Hakim Samarqandiy va Abu Bakr Iyodiy kabi olimlarni kiritish mumkin.

